

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING MAHALLA HUQUQ-TARTIBOT
MASKANIDA SOHAVIY XIZMATLAR BILAN HAMKORLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH**

*IIV Akademiyasi kursanti 321-guruh kursanti
O'ktamaliyev Kamron Bahodir o'g'li*

Annotatsiya

Mazkur maqolada, profilaktika inspektorining mahalla huquq-tartibot maskanida sohaviy xizmatlari bilan hamkorligi tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari, huquqiy va takomillashtirishiy asoslari, hamkorligini metodik ta'minlash, hamkorligini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari, hamkorligini takomillashtirish etish bo'yicha ilg'or xorij tajribasi, qolaversa, hamkorlikdagi mavjud kamchilik va muammolarni samarali bartaraf etish bo'yicha bir qator taklif va mulohazalar yoritib berilgin.

Kalit so'zlar: Profilaktika inspektori, mahalla, huquq-tartibot maskani, sohaviy xizmatlar, hamkorlik, jinoyatchilikning oldini olish, huquqbazarliklar, fuqarolik jamiyati, profilaktik chora-tadbirlar, axborot almashinuvi, ijtimoiy xavfsizlik, mahalla tizimi, huquqiy madaniyat, jinoyatga qarshi kurash.

Annotation

The relevance of the research topic, the concept and specifics of cooperation of the Inspector of Prevention with the sectoral services of law enforcement agencies, legal and organizational framework, methodological support of cooperation, the main directions of cooperation, best international experience in cooperation, as well as existing shortcomings and highlight a number of suggestions and comments on how to effectively address the issues.

Keywords: Preventive inspector, neighborhood, law enforcement, sectoral services, interagency cooperation, crime prevention, public safety, community policing, legal culture, early prevention, information exchange, social security, civil society institutions, coordinated actions, crime control.

Kirish

Huquqbazarliklar profilaktikasi sohasida amalga oshirilgan islohotlarning bugungi bosqichida uning samaradorligini oshirish, shuningdek, huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyatini amalga oshirish jarayonida huquqni muhofaza qilish organlari bilan birga boshqa davlat organlari, jamoat tuzilmalari va fuqarolarning ishtiropini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbazarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidan respublika

darajasigacha samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash maqsadida:

Ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirishning mutlaqo yangi mexanizmlari etib quyidagilar belgilansin:

har bir mahalla, oila va shaxs kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid muammolarni bevosita joylarning o‘zida hal etish;

hududlarda jinoyatchilik ahvoldidan kelib chiqib, har bir tuman, shahar va mahallalarni toifalarga ajratish hamda hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilan hamkorlikda «jinoyat o‘choqlari»ni bartaraf etish uchun barcha zarur kuch va vositalarni jalg qilish;

«respublika — viloyat — tuman — mahalla» tizimi asosida yaxlit boshqaruva va uzuksiz nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish, ichki ishlar va boshqa davlat organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash borasidagi faoliyatini samarali muvofiqlashtirish orqali mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash; ichki ishlar organlari xodimlarining zamonaviy qiyofasini yaratish, ularning mas’uliyati va kasbiy salohiyatini oshirish, jinoyatchilikning yangi ko‘rinishlariga qarshi kurashish uchun zarur ko‘nikmalarni shakllantirish hamda sohani to‘liq raqamlashtirishga erishish va shu kabi boshqa ustuvor yo‘nalishlar belgilandi

Asosiy qism

1. Profilaktika inspektorining mahalla huquq-tartibot maskanida sohaviy xizmatlar bilan hamkorligini takomillashtirishning tushunchasi xamda ahamiyati

Profilaktika inspektorlari sohaviy xizmatlari bilan hamkorligini takomillashtirish va takomillashtirish masalalari ko‘rilayotganda, avvalo o‘rganilayotgan ob’ektida o‘zaro hamkorlik tushunchasiga ta’rif berib o‘tish maqsadga muvofiqli.

V.A.Afanasev hamkorlikka quyidagicha ta’rif beradi. *Hamkorlik*-bu qonun va qonun osti aktlarda asoslangan, vazifalar, yo‘nalishlar va vaqtlar bilan kelishilgan, xizmat ko‘rsatilayotgan hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashda, huquqbuzarliklar shu jumladan jinoyatlarning oldini olishda ishtirok etuvchi militsiya (ichki ishlar organlari)ning kuch va vositalaridan hamkorlikda foydalanish tushuniladi.

Hozirgi kunda profilaktika inspektorlarining mahalla huquq-tartibot maskanida soxaviy xizmatlar bilan hamkorligi: *birinchidan*, bиргаликда yo‘riqnomalar o‘tkazishda; *ikkinchidan*, huquqbuzar va jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar haqida axborotlarni o‘zaro almashishda; *uchinchidan*, huquqbuzarliklar jumladan, jinoyatlarning sodir etilish sababi va sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etishda; *to‘rtinchidan*, huquqbuzarliklarning oldini olishga doir tadbirlarni hamkorlikda amalga

oshirishda; *beshinchidan*, huquqbuzarliklar, jumladan jinoyatlarning oldini olishga doir ilg‘or tajribalarni o‘zaro almashishda namoyon bo‘ladi.

2. Profilaktika inspektorining mahalla huquq-tartibot maskanida sohaviy xizmatlar bilan hamkorligini takomillashtirishning huquqiy asoslari. Profilaktika inspektorlarining sohaviy xizmatlar bilan hamkorligi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi, «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi, «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida»gi, «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi va boshqa qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, boshqa qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining buyruqlari va farmoyishlari, shuningdek mazkur nizomlari asosida amalga oshiradi.

Konstitutsiyamizning 13-moddasida ko‘rsatilganidek, O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Ularni ta’minalash esa, boshqa davlat organlari, muassasalarini va takomillashtirshotlari qatori profilaktika inspektorlarining ham asosiy vazifasidir.

O‘zbekiston Respublikasining «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalari to‘g‘risida»gi 1999 yil 19 avgust va « Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to‘g‘risida»gi 2020 yil 27 oktyabrdagi qonunlari fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamoat tartibini buzuvchi, qolaversa, aholining osoyishtaligi, salomatligi va ma’naviyatiga xavf tug‘diruvchi surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka qarshi kurash va ularning oldini olishda profilaktika inspektorlarining sohaviy xizmatlar bilan keng ko‘lamli hamkorligini tartibga solidi.

3. Profilaktika inspektorining mahalla huquq-tartibot maskanida sohaviy xizmatlar bilan hamkorligini takomillashtirishning ilg‘or xorij tajribasi

Osiyo va Yevropa mintaqalarida joylashgan mamlaktlarda huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibi va xavfsizlikni ta’minalash o‘zgacha. Ushbu sohada har bir davlat o‘ziga xos tajribaga ega bo‘lib, ularni o‘rganish hamda yurtimiz jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minalash tizimiga tatbiq etish bugunning dolzarb talablaridan biridir. Ma’muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minalash borasida xorijiy davlatlar to‘plagan tajribani o‘rganish bu masalaga tizimli yondashuvni talab qiladi. Shu sababli, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun quyidagicha yondashish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz: Xorijiy davlatlar jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minalash tizimlari. Har bir davlatning jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minalash tizimi boshqa mamlakatlarnikidan muayyan xususiyati bilan ajralib turadi.

Turkiya milliy politsiyasi mamlakatda qonun ustuvorligini, fuqarolarning qonuniy huquq va erkinliklarini, shuningdek jamoat xavfsizligini ta'minlash, davlat hududiy yaxlitligi va xavfsizligini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, xususan huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyatini olib boradi.

Turkiya milliy politsiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanib faoliyat olib boradi: Qonun ustuvorligi, inson huquqlari, demokratik politsiya, jamoatchilik tartibi va xavfsizligi, ijtimoiy tinchlik, professionallik, ozodlik va xavfsizlik bilan uyg'unlik, jinoyatlarning oldini olish va samarali politsiya faoliyati, kommunikativ Politsiya Falsafasi.

Bu borada o‘ziga xos tajriba Rossiya Federatsiyasida to‘plangan. Mamlakat Konstitutsiyasining 72-moddasiga muvofiq, qonuniylik, huquq-tartibot, jamoat xavfsizligini ta’minalash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish Rossiya Federatsiyasi va sub’ektlarining birgalikdagi boshqaruvida amalga oshiriladi. Ijroiya hokimiyatiga rahbarlikni amalga oshirish asosida Prezident va hukumat qonuniylik, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minalash, mulkchilik va jamoat tartibini qo‘riqlash bo‘yicha takomillashtirishi boshqaruv chora-tadbirlarini amalga oshiradi, shuningdek jinoiy-huquqiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari, resurslarini belgilaydi . Rossiya Federatsiyasi Prezidentining «Rossiya Federatsiyasi ichki ishlar vazirligi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida»gi 1996 yil 18 iyul farmonida ko‘rsatilganidek, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minalash, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, ob’ektlarni qo‘riqlash, jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minalash IIVning eng asosiy vazifasi hisoblanadi . Sobiq Ittifoq parchalanganidan keyin Rossiya Federatsiyasida militsiya, keyin esa politsiyaning faoliyati ikki asosiy yo‘nalishga, ya’ni kriminal va jamoat xavfsizligi militsiyasi (politsiyasi)ga ixtisoslashgan holda takomillashtirish etildi. Mamlakatda «munitsipal politsiya» va «jamoat xavfsizligi politsiyasi» atamalari bir xil ma’noga ega bo‘lib, ular faoliyatini takomillashtirish etish va tartibga solish maqsadida mamlakatda Rossiya Federatsiyasi Prezidentining «Jamoat xavfsizligi militsiyasi munitsipal organlarini bosqichma-bosqich shakllantirish to‘g‘risida»gi farmoni qabul qilingan.

Xulosa: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentdi Shavkat Mirzieyov: «Biz “Adolat – qonun ustuvorligida” degan tamoyil asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqbuzarlik holatlariga murosasizlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz. Bu borada huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga alohida e’tibor qaratiladi. Buning uchun avvalo, mahalla imkoniyatlaridan keng foydalanish, profilaktika inspektorlarining ish samarasi va ma’suliyatini oshirish, ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitini yaratib berish choralarini ko‘rishimiz darkor» deb takidlاب o‘tdi.

Demokratik davlat va jamiyat yetukligining asosiy mezonlaridan biri-bu fuqarolarning huquqiy ong hamda madaniyat darajasidir. Bu o‘z navbatida jamiyatda

qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri bo'lishi qatorida, huquqbazarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda aytadigan bo'lsak, respublikada huquqtartibot tizimining quyi bo'g'inlariga katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Bu masalaga davlat rahbari ham alohida to'xtalib, «Hozirgi kunda eng katta masala – bu ichki ishlar tizimining quyi bo'g'inini mustahkamlashdan iborat. Biz profilaktika inspektorlarining yashashi va ishlashi uchun barcha sharoitlarni yaratib berdik. Endi ularning salohiyatini, mahalla fuqarolar yig'ini bilan hamkorligini kuchaytirish zarur. Bundan keyin har bir mahalladagi profilaktika inspektori o'rniga uch nafar eng professional xodim saralab olib biriktiriladi. Shunday qilsak, ular o'rtasida raqobat paydo bo'ladi, odamlarning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlaydigan chinakam samarali tizim yaratiladi» deb aytib o'tgandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. 2017 yil 20 noyabr kuni o'tkazilgan jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olishda davlat va jamoat takomillashtirishotlari hamkorligiga bag'ishlangan yig'ilishda so'zlagan nutqi // Xalq so'zi. – 2017. – 21 noyab.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi:
3. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydag'i «Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni:
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5005-sон Farmoni:
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi «Ichki ishlar organlarining huquqbazarliklar profilaktikasi bulinmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2896-sonli qarori:
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF-27-sон Farmoni. «O'zbekiston respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida:
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi PQ-5050-sон qarori. «Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha takomillashtirishiy chora-tadbirlar to'g'risida:
8. Ziyodullaev M.Z. Aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlash va huquqbazarliklar profilaktikasining ilg'or xorij tajribasini mamlakatimizga joriy etishning asosiy yo'nalishlari.